



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я **ПРЕПОДАВАНИЕ**
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2019-yil. 9-son.

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'L OMON!



Beshta muhim
tashabbus

Badiiy adabiyotda tibbiyot
marzui

3
bet



Eng faol filolog-
muallim

"Butun dunyo bolalari,
tinchlik uchun
birlaashaylik!"

7
bet



Tadqiqotlar

"Boburnoma"da portret
san'ati

28
bet



Мастерство
перевода

Анализ русского
перевода повести
Улугбека Хамдама
«Одиночество»

74
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2019-yil. 9-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Sirojiddin SAYYID
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nigora O'ROLOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 22.10.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/4, Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasida, 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Mauzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma № 16 Adadi 3830 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАТЕЛЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING I

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

BESHTA MUHIM TASHABBUS	
Kavvar Turdiyeva. Badly adabiyotda tibbiyot mavzusi	3
DOLZARB MAVZU	
Durdona Lutfullayeva, Muyassar Saparniyazova. O'zbek tilida nom yaratish muammolari	5
DARS – MUQADDAS	
Shahlo Oshiqova. Butun dunyo bolalari, tinchlik uchun birlashaylik!	7
Nazokat Abduraxmanova. O'zlik nisbati	9
Munira Husanova. So'zlarning shakli va ma'no munosabatiga ko'ra turlari yuzasidan takrorlash	10
METODIK TAVSIYA	
Flruz Safarov. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida yangi so'zlarni faollashtirish usullari	14
Turg'unoy Kaziyeva. Bo'g'inning til va nutqdagi o'rnini o'rgatishda o'quvchining kreativ tafakkurini rivojlantirish	16
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Muqaddamxon Ehsanova. Nutqning kommunikativ sifatlarini o'stirishda qo'llanadigan pedagogik texnologiyalar	19
TAHLIL	
Vazira Nuriddinova. "Saddi Iskandariy" dostonidagi omonimlar	21
Eshnazar Jabborov. Jahon ma'rifatchiligining sharqona tamoyillari	22
Nalma Keldiyorova. Azim Suyun she'riyatida inson va tabiat uyg'unligi	24
Shahnoza Rahmonova. Maktab darsligida keltirilgan aruz vaznlari tahlili	25
TADQIQOTLAR	
Elmira Hazratqulova. "Boburnoma" da portret san'ati	28
Olima Xolmurodova. Ingliz kumulyativ ertaklarida Jek obrazi	30
Gulhayo Amrulloeva. O'qish darslarining pedagogik imkoniyatlari	32
KICHIK TADQIQOT	
Lolo Shasaidova. Xitoy tilini o'rganishda fonetik qiyinchiliklar	34
Sayfulla Nurtov. Ingliz neologizmlari va ularning qo'llanilishi	35
Mehroj Kuldashiev. Xitoy va o'zbek tili frazeologizmlarining siliistik funksiyalari	37
Zavqiddin Suvanov. Adabiyot ta'limida muallif obrazi va bayonchi munosabati	39
Dilafroz Muhammadliyeva. Tanjimada somatik frazemalarning ifodalanishi	40
Guli Shukurova. Esse-qissada jangchi xollralarining badiiy talqini	42
Obodon Adizova. Aziz Qayumovning tanxiiy-biografik asarlari mazmuni va til xususiyatlari	43
Elmurod Nasrullayev. Navolning falsafiy aqldalari xususidagi tadqiqot tahlili	44
Adiba Davlatova. Zamonaviy o'zbek she'riyatida O'zbekiston timsolining badiiy tasviri	46
Fotima Safarova. Xorijiy tilni o'rgatishda qiziqishni shakllantirish usullari	47
Otabek Yuldashev. Ayrim tarixiy geoneronimlarning leksik-semantik xususiyatlari	48
«ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ»	
Марвар Шарифудинова. Мнемотехника – технология развития памяти	49
Зулхумор Исажанова. В магазине	52
Татьяна Степанкова. «Маленький принц» Антуана де Сент-Экзюпери	54
ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ	
Феруза Саидова. Факторы формирования мониторинга качества образования	56
Маъсуда Тахирова. Словарная работа как один из способов повышения языковой культуры студентов	57
Любовь Раджабова. Коммуникативная направленность в обучении русскому языку	59
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ	
Малохат Узакова. Текстцентрический подход как один из эффективных приемов при изучении русского языка как неродного	62
Нилуфар Ахмедова. Обучение профессионально-ориентированной лексике курсантов Таможенного института	64
Муборак Махмудова. Развитие письменной речи учащихся узбекской школы	66
ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ	
Беккенбауэр Реймов, Айшолпан Ниязова. Нам сказка изучать и усваивать английские фразеологизмы помогает	68
МАСТЕРСТВО ПЕРЕВОДА	
Феруза Мусаева. Анализ русского перевода повести Улугбека Хамдама «Одиночество»	71
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Юлия Матенова. Диалог современного французского писателя Кристиана Бобена с литературной классикой	74
Агата Осипова. Особенности художественного осмысления действительности современными постмодернистами	76
Замира Нуржанова. Особенности графики древнерусской рукописной книги	77
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	
Маргарита Батырова. Гуманизация – ключевая категория вузовского образования	79

Тil va Adabiyot
TALIM

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashr.

ning o'zi guvohi bo'lgan voqealarni aytib bergani bilan ishonch bag'ishlaydi. Asardan keltirilgan yuqoridagi lavhada otaning o'g'lidan mehmonga atalgan xurmoni olaman deb urinishi ancha jo'n tuyulsa-da, bizni befarq qoldirmaydi. Ota o'g'lining mehmonlar dasturxonlari uchun olingan mevani aytmasdan olganiga asabiylashadi va qizishib ketadi. Ushbu parchada "yer tepib-yer tepib", "yomon-yomon og'ridi", "og'zini ushlab-ushlab yig'ladi", "yumalab-yumalab jo'nadi" tarzidagi takrorlar roviyda chuqur achinish hissi borligini anglatadi va tasvirda ma'no kuchayishiga olib kelgan. Agar roviy bosh obraz bo'lmasa, kitobxon bu hisni tuymaydi. Voqealar ham yashirilmasdan aytiladi. Agar voqealarni muallif so'zlasa, ancha andisha saqlab, o'sha jarayonni shu darajada ochib berolmagan bo'lardi. Dehqonqulni muallif rost so'zlashga o'rgatadi. U o'zini fosh qilish yo'lidan borsa-da, o'zidagi samimiyatni saqlab qolgan. Bu esa muallif muvaffaqiyatini ta'minlagan.

Nosir yuqoridagi parcha bayonini III shaxs tilidan bersa, jarayonga muallif aralashadi va an'anaviy bayon uslubidan chiqib ketolmaydi. Asarning ishontirish quvvati susayadi. Fikrimizni isbotlashga harakat qilib ko'ramiz.

"O'g'lini bir yoniga ag'dardi. Nima ekan deya, bag'riga qaradi.

O'g'lining bag'rida ikki dona xurmo bo'ldi.

O'g'li xurmolarni tag'in-da bag'ir bosdi. Yer tepib-yer tepib yig'ladi.

– Bermayman, yo'q, bermayman! – dedi.

O'g'lini dast ko'tarib qo'ltiqib oldi.
O'g'li qo'ltig'ini tepkilab yig'ladi. Bilaklarini tishlab yig'ladi. Yosh bolani tishi yomon-da – bilaklari achishib og'ridi..."

Endi bayon bevosita emas, bilvosita III shaxs birlik shaklida berilyapti. O'quvchi va badiiy asar orasi ikki qadam uzoqlashganday bo'ldi. O'z-o'zidan bu holat asar badiiyatiga ta'sir etadi. Bundan tashqari qahramon nutqidagi yuklama shakllarining kelishi chuqur ta'kid ma'nosini ham anglatgan.

Hikoyaning I shaxs tilidan bayon qilinishi mumtoz adabiyotimiz namoyandalari hazrat Navoiyning "Vaqqiya", Boburnoma, Muqumiyning "Sayohatnoma" asarlarida ham uchraydi. Tog'ay Murod esa bu mumtoz an'anani, ya'ni badiiy asarni bayon qilish yo'lini o'zlashtirib, o'zbek nasrida umuman o'zgacha bayon qilish yo'lini kashf qildiki, uning ixtiro qilgan yo'li boshqa ijodkorlarni takrorlamadi, ammo ularning tajribalarini sinkretik tarzda qo'llab, o'zining betakror qiyofasini aks ettirdi.

Tog'ay Murodning ijodiy uslubi aynan bayon tarzida oydinlashadi va o'zini oqlaydi.

Bayonchi – asarda tasvirlangan dunyoni boshqaruvchi, ya'ni uyushtiruvchi obraz. Bayonda hikoyachi Dehqonqul kabi konkret shaxs tarzida namoyon bo'ladi. U asardagi olamni muallif kabi ichkaridan turib, aniq kuza-tuvchi sifatida yoritadi. Ammo romanda muallif mutlaqo yo'q bo'lib ko'rinadi. Bu esa Tog'ay Murodning mahoratini ko'rsatishda tayanch manba vazifasini o'tagan.

¹O'.Nosirov. Ijodkor, shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent: Fan. 155-bet.

²O'sha manba. 155-bet.

³Нестеренко А.А. Авторская позиция в повествовательном произведении (на материале творчества Л.Н.Толстого. 1850–60-х годов). Автореф. дис... канд. филол.наук. – Москва, 1970. – С. 22.

⁴Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. – Москва, 1961. – С. 34

Dilafro'z MUHAMMADIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

TARJIMADA SOMATIK FRAZEMALARNING IFODALANISHI

Tilshunoslikda tana a'zolari nomlari bilan bog'liq (somatik) frazemalarning semantik maydonini o'rganish yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Tarixiy asarlardagi somatik frazemalarni o'rganish o'zbek tili frazeologiyasi tarixi, xalq dunyoqarashi, urf-odatlarini, an'analari haqida muhim ma'lumot beradi. Xuddi shu ma'noda "Boburnoma"dagi frazemalarni o'rganish ham bugungi kun uchun dolzarbdur.

"Boburnoma"da ko'z va qo'l (ilik) tarkibli ko'z yetar yerda, ko'z ilmas, ko'z soling, arkni iliklamoq, ilik olish-tilar, ilikka tushti kabi iboralardan unumli foydalanilgan.

Ko'z komponentli frazemalar turli-tuman his-hayajonli va fiziologik jarayonlarni ifodalashga xizmat qiladi, ularning asosiy qismi struktural jihatdan ot+fe'l tuzilishga ega bo'lgan ikki hamda uch komponentli fe'l iboralardan iborat bo'ladi: ko'z yetar yer (...ko'z yetar yerda bir otning

ustida bir nima yiltirab ko'rinadir, ko'z ilmas (Bu fir'avn ani ko'z ilmas edi), ko'z solmoq (O'yg'a ko'z soling, o'yni iturmang), ko'z uyquga bormoq (...bir zamon ko'zim uyquga bordi). Ushbu misollarda fe'l grammatik tayanch komponent vazifasini o'tasa, ko'z so'zi semantik tayanch komponent bo'lib, frazemalarning mantiqiy asosini belgilaydi. Ushbu misollardan ko'z yetar yerda, ko'z ilmas frazemalari masofa va maydon tushunchasini, ko'z soling, ko'zlariga miil tortqaylar, ko'zim uyquga bordi frazemalari esa holat semalarini tashishga xizmat qilgan.

Qo'l tarkibli frazemalarda ushbu komponentni ham grammatik, ham semantik tayanch vazifada ko'rishimiz mumkin: *ilik olishtilar* (Boysunqur Mirzoning kishisi bila *ilik olishtilar*), *o'zimning iligimda* (o'z jilovim o'zimning iligimda bo'lur), *ilikka tushti* (*ilikka tushkan* navkarlar), *arkni iliklamoq* (Shayx Boyazidni tutmoq kerak, *arkni iliklamoq kerak*) kabi. Keltirilgan misollarning barchasida *ilik* so'zi ko'chma ma'noda ishlatilgan va *ixtiyor, ega-lik qilish* kabi ma'nolarni anglatgan.

Frazemalar tarjima jarayonida mas'uliyat bilan yondashish, lingvistik, etnografik, tarixiy bilimni talab etadigan birliklar bo'lib, "Boburnoma"dagi frazemalarning turkcha tarjimasida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Frazema unga yaqin ma'noli frazema orqali tarjima qilingan:

Bir tom uyga kirib, o't yoqib, bir zamon ko'zim uyquga bordi ("Boburnoma", 99-bet) – *Duvarla çevrilmiş bir eve girip, ateş yakıp, bir müddet uykuya daldım* (Vekayi s.125).

Ko'zum uyquga bordi iborasi tarjimasida ko'z komponenti ifoda etilmagan, unga ekvivalent sifatida *uykuya daldım* frazemasini qo'llangan. Bobur uyqu holatini ko'zga nisbatan tasvirlaydi, tarjimada esa *uykuya dalmak* butun tanaga nisbatan olingan. Shu bilan birga uch tarkibli frazema (*ko'zum uyquga bordi*) ikki tarkibli ibora (*uykuya daldım*) bilan o'girilgan. O'zbek tilida uyqu so'zi *daldı* – *cho'mdi* tushunchasi bilan emas, balki *xayol*, o'y so'zlari bilan birga ishlatiladi. Bu ham o'zbek va turk tillaridagi frazemalarning farqli jihati hisoblanadi.

2. Frazema so'zma-so'z tarjima qilinganda, masalan, *ko'z ilmas* (pisand qilmaslik) iborasi *nazar-ı dikkate almazdı* (*e'tiborga olmasdi*) shaklida qo'llangan:

Bu fir'avn ani ko'z ilmas edi ("Boburnoma", 45-bet) – *Fakat bu fir'avn onu nazar-ı dikkate almazdı* (Vekayi, s. 26).

Bu ibora tarkibidagi *ko'z* komponenti turkchada ko'zga aloqador bo'lgan holat oti – *nazar-ı dikkate* izofali birikmasi bilan ifodalangan. *Pisand qilmaslik* tushunchasi ham mazmun jihatidan biroz yumshagan va takabburlik emas, balki shunchaki e'tibor bermaslik tushunchasiga yaqinlashgan.

Shayx Boyazidni tutmoq kerak, *arkni iliklamoq kerak* ("Boburnoma", 95-bet) – Şeyh Bayezdnlı yakalamak ve erki ele geçirmek lazım (Vekayi, s.126).

Bu misolda *arkni iliklamoq* frazemasini *erki ele geçirmek* (kuch bilan egallamoq) shaklida tarjima qilingan. Tarjimada *qo'l* tushunchasi o'rniga *kuch bilan* ma'nosini beruvchi boshqa frazema qo'llangan.

3. Frazemaning ma'nosi so'z birikmasi bilan ifodalanganda *ko'z yetar yerda* frazemasini *gözle görünür* tarzida tarjima qilingan:

Kun tush bor edikim, ko'z yetar yerda bir otning ustida bir nima yiltirab ko'rinadir ("Boburnoma", 99-bet) – Ögle vakti gelmişti; *gözle görünür* bir yerde bir at üzerinde bir şey parlıyordu (Vekayi s.124).

Ilikka tushkan navkarlarning tamom bo'ynig'a urdirdi ("Boburnoma", 57-bet) – *Eser düşen* adamlarının hepsinin başlarını kestirdi (Vekayi s. 43).

Bu yerda *ko'z yetar yerda* frazemasini *gözle görünür* (ko'z bilan ko'radigan) so'z birikmasi, *ilikka tushkan* iborasi *eser düşen* (*asir tushgan*) tarzida tarjima qilingan. Birinchi frazemada *ko'z* komponenti saqlangan, faqat grammatik kategoriyalariga almashgan, ikkinchi misoldagi *ilikka tushkan* frazemasini shu ma'noni beruvchi *asir tushish* iborasi bilan almashtirilgan va bu asar tushunarligini ta'minlagan. Aytish joizki, *asir tushish* iborasi o'zbekcha tarixiy manbalarda ham ko'p uchraydi.

4. Frazema yo'qolib, uning ma'nosi bir so'z bilan ifodalangan:

O'yg'a ko'z soling, o'yni iturmang, to yo'lning qay sari chiqari ma'lum bo'lg'ay ("Boburnoma", 87-bet) – Öküze bakın, ne der; yolın nereye çıkacağı malum oluncaya kadar yürü (Vekayi, s.101).

Ushbu kun ba'zi ichki beklar Xiyobon boshida Boysunqur mirzoning kishisi bila *ilik olishtilar* ("Boburnoma", 56-bet) – Oğün bazı içki beyler hiyaban başında Baysungur Mirza'nın adamları ile çarpıştılar (Vekayi, s. 41).

Bu o'rinda ko'z soling – *bakın* (boqing, qarang), *ilik olishtilar* frazemasini *çarpıştılar* (to'qnashdilar) so'zi bilan ifodalangan. Bu bilan matnda ifodalananayotgan ma'no soddalashgan.

Xulosa qilib aytganda, "Boburnoma"da qo'llangan iboralarni turk tili bilan qiyosiy hamda struktur tadqiq etish tarixiy frazemalarning bugungi kundagi evolutsiyasini aniqlash va tarjimadagi o'ziga xosliklarni belgilashga yordam beradi. Bu esa til tarixi, tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya, leksikografiya va frazeologiya sohalari uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi mumkin. Biz yuqorida ko'rib chiqqan somatik frazeologizmlar va ularning tarjimalari vositasida xalqlar o'rtasidagi urf-odatlar, turmush tarzi, an'analardagi mushtarak va farqli tomonlar ko'zga tashlanadi.

¹U.Rashidova. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili (*ko'z, qo'l* va *yurak* komponentli iboralar misolida). PhD avtoreferati. – Samarqand, 2018. 6-bet.